



THE ROLE OF THE LOCAL BUDGET IN THE UZBEK SSR AFTER THE SECOND WORLD WAR (A CASE STUDY OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA)

Rasuljon Rakhimbayevich Duschanov

PhD in History, Associate Professor

National University of Uzbekistan

duschanovrasuljon1985@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Local budget, region, district, city, rural council, village, tax, financial department, fee, state expenditure, state revenue, category, income, expenditure, document, archive, source.

Abstract: This article examines the significance and role of the local budget in the formation of revenues and expenditures in the Uzbek SSR after the Second World War. It highlights the dominant share of taxes and fees in local budget revenues and analyzes the allocation of expenditures to the national economy, socio-cultural activities, and other sectors. The study is based on archival documents and historical sources from the Surkhandarya and Kashkadarya regions.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN O‘ZBEKISTON SSRDA MAHALLIY BUDJETNING O‘RNI (SURXONDARYO VA QASHQADARYO MISOLIDA)

Rasuljon Raximbayevich Duschanov

O‘zbekiston Milliy universiteti t.f.f.d., dotsent

duschanovrasuljon1985@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Mahalliy budjet, oblast, tuman, shahar, qishloq soveti, ovul, soliq, moliya bo‘limi, yig‘im, davlat xarajati, davlat daromadi, toifa, kirim, chiqim, hujjat, arxiv, manba.

Annotatsiya: O‘zbekiston SSRda daromad va xarajatlarning shakllanish jarayonida mahalliy budjetni ahamiyati va o‘rni, mahalliy budjetdagi daromatlarda soliq va yig‘imlar ulishi yuqori bo‘lganligi, xarajatda xalq xo‘jaligi va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga va boshqa sohalarga ajratilgan mablag‘lar haqida keltirilgan.

РОЛЬ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА В УЗБЕКСКОЙ ССР ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ И КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ)

Расулжон Рахимбаевич Душанов

Доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Национальный университет Узбекистана

uschchanovrasuljon1985@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: местный бюджет, область, район, город, сельский Совет, аул, налог, финансовый отдел, сбор, государственные расходы, государственные доходы, категория, доход, расход, документ, архив, источник.

Аннотация: В статье рассматриваются значение и роль местного бюджета в процессе формирования доходов и расходов в Узбекской ССР после Второй мировой войны. Показано, что в структуре доходов местных бюджетов значительную долю составляли налоги и сборы, а в расходной части основная часть средств направлялась на развитие народного хозяйства, социально-культурные мероприятия и другие сферы.

Kirish. Budjet davlat, respublika va mahalliy budjetlarga bo‘linib, mahalliy budjet davlat daromadi va xarajatining quyi bo‘g‘ini hisoblanadi, u bir nechta turlarga bo‘linishi va daromadlarning birlashishi natijasida shakllanadi. Bularning oblastlar kesimida jamlanishi natijasida davlat budjeti shakllanib boradi.

Muhokama va natijalar. Qashqadaryo oblasti – 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. 1927-yil 17-fevraldan 1938-yil 15-yanvargacha Qashqadaryo okrugi maqomida, 1938-yil 15-yanvarda Buxoro oblastiga qo‘shilgan. 1943-yil 20-yanvarda qayta tashkil etilgan. 1960-yil 25-yanvarda Surxondaryo oblastiga qo‘shilgan. 1964-yil 7-fevraldan yangidan tashkil etilgan [1]. Surxondaryo oblasti – 1941-yil 6-martda tashkil etilib, (1925-yil 29-iyundan Surxondaryo okrugi bo‘lgan). 1960-yil 25-yanvarda Qashqadaryo oblasti bilan qo‘shilgan. 1964-yil fevralda qaytadan tashkil qilingan[2]. Shu oblastlar misolida moliya sohasining bir bo‘lagi bo‘lgan budjet tarixi, mahalliy budjet shakllanishida daromadlarning ahamiyati arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.

1946-yildagi O‘zbekiston SSRning davlat budjeti 2.686.174 ming so‘m bo‘lib, mahalliy budjetga 1.377.580 [3] ming so‘m miqdorida mablag‘ ajratilganligi, shuning 51 % mahalliy budjetga to‘g‘ri kelgan.

Mahalliy budjetdagi yillik hisobotning ijrosi bo‘yicha daromad va xarajat turlari № 2-b shakldagi hujjatda daromadning 36 ta turi berilgan qaysidir daromad bizning hududimizda

bo'lmashligi mumkin, lekin boshqa hududlarda bunday daromadlar borligi qayd etiladi. Xarajatlarning 41 ta bo'limi bo'lib, ulardan ba'zilari ta'kidlab o'tilsa, mahalliy sanoat, mahalliy yoqilg'i sanoat, qurilish materiallari suv xo'jaligi, sanoati boshqarmalari, baliq sanoati, go'sht va sut mahsuloti sanoati, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik sanoati, yengil sanoati, o'rmon sanoati, yer bo'limlari va boshqalarni [4] shular jumlasidan hisoblanadi.

Arxiv hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1950-yildagi davlat budjeti daromadi – 3.757.332 ming so'm va xarajatlar 3.476.558 ming so'm miqdorida keltirilib, daromadlar xarajatlardan 98.774 ming so'm ortiq qilib tasdiqlangan. Bundan kelib chiqib 1951-yilning 1-yanvariga o'tadigan respublika va mahalliy budjet mablag'larining qoldiqlari 104.474 ming so'm miqdorida belgilangan [5]. Shu yildagi davlat budjetidan mahalliy budjetga ajratilgan mablag'lar jihatidan 8 % ga yaqini Samarqand oblastiga, 2 % dan ortig'i Surxondaryo oblastiga ajratilgan. Shu yildagi mahalliy budjet, davlat budjetining 53 % ini tashkil qilgan. Davlat xarajatlaridan mahalliy xarajatlarga 54 % to'g'ri kelgan. Mahalliy budjet uchun kolxozlardan olinadigan daromad solig'i, kolxozchilar va yakka xo'jaliklardan olinadigan qishloq xo'jaligi solig'i, bo'ydoq, yolg'iz va kam bolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq, o'rmon daromadi va aholi orasida tarqatiladigan davlat zayom mablag'laridan belgilangan miqdorda har yili ma'lum foizi qoldirilgan.

1960-yildagi mahalliy budjetga e'tibor qoratilsa, shu yildagi budjet 98,7 % ga bajarilgan. Mahalliy budjetlar davlat budjetining hududdagi bir bo'lagi hisoblanib, bundagi daromadlar 3 ta guruhga ajratilgan. Birinchi budjetga to'la ravishda tushadigan daromadlari bo'lib bu – 98 % bajarilgan, ikkinchi umumittifoq davlat daromadlari va soliqlardan ajratmalar bo'lib, bunga aylanmadan olinadigan soliq, kolxozlardan, aholidan daromad soliqlari, bo'ydoq, yolg'iz kam bolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq hamda o'rmon daromadi va pul – buyum loteriyalardan tushadigan daromadlar kiritilgan, uchinchi respublika budjetiga beriladigan mablag'lar bo'lgan[6].

Mahalliy budjetdagi xarajatlar 5 guruhga bo'linib, birinchi xalq xo'jaligini moliyalashtirish, ikkinchi ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish, uchinchi davlat idora organlarining ehtiyojlariga ajratilgan mablag'lar 100 % ga bajarilgan, to'rtinchi boshqa tadbirlarga ajratilgan mablag'lar 83 % dan ortiq bajarilgan, beshinchi QQASSR Ministrlar Sovetining zohira fondiga belgilanib, shu yildagi xarajatlar umumiy hisobda 98,7 % bajarilgan[7]. Shu yildagi daromadni aylanmadan olinadigan soliq – 31,5 %, kolxozlardan olinadigan daromad solig'i – 17 %, aholidan olinadigan daromad solig'i – 9,5 %, qishloq xo'jaligi – 3 %, bo'ydoq, yolg'iz va kam oilali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq – 2 % idan iborat bo'lganligi, mahalliy budjetning 62 % ini soliqlar tashkil qilgan.

Surxondaryo oblasti sovetining IX chaqiriq VIII sessiyada Mehnatkashlar deputatlari oblast soveti budjet komissiyasining raisi E.M. Muhammadiyevning qo‘shimcha ma‘ruzasida 1964-yilda oblastimizdagi 8 korxonada ishlab chiqarish rejada belgilanganiga nisbatan 3038,0 ming so‘mlik mahsulotni kam berganligi, bular Denov g‘isht va yog‘ zavodi, 165-qurilish trestlari mahsulotlarni kam ishlab chiqarganligi va belgilangan rejalar bajarilmaganligi haqida to‘xtalib o‘tgan[8]. Shu ma‘ruzasida koopersiyalar tizimida o‘zlashtirish va talon-toraj qilishlik miqdori yildan-yilga ortib borayotganligi haqida ham aniq fikrlar bildirgan.

Surxondaryo oblastining 1965-yildagi mahalliy budjetiga e‘tibor qaratilsa, daromadlar uch guruhga ajratilgan:

1) Budjetga to‘la ravishda tushadigan daromadlar – korxonada va xo‘jalik tashkilotlarining foydalaridan ajratmalar;

2) Umumittifoq davlat daromatlari va soliqlaridan ajratmalar: aylanmadan olinadigan soliq, aholidan olinadigan daromad solig‘i, qishloq xo‘jaligi solig‘i, bo‘ydoq, yolg‘iz va kambolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq, o‘rmon daromadi va pul-buyum loteriyalari bo‘yicha tushadigan mablag‘lari bo‘lib, unga aylanmadan olinadigan, kolxozlardan, aholidan, qishloq xo‘jaligi va bo‘ydoq, yolg‘iz va kambolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliqlar daromad manbai bo‘lgan.

3) Respublika budjetidan tushadigan mablag‘lar tashkil etgan.

Mahalliy budjetning xarajatlari 5 ta bo‘lib, 1) xalq xo‘jaligini mablag‘ bilan ta‘minlash, 2) ijtimoiy-madaniy tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlash, 3) davlat idora organlarining ehtiyojlarini mablag‘ bilan ta‘minlash, 4) boshqa tadbirlar, 5) Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar Sovetining zahira fondlari kabi xarajatlarga bo‘lingan [9].

1965-yildagi Qashqadaryo oblasti budjetining daromad va xarajati bir xil 50921 ming so‘m qilib belgilangan. 1964 yilda 33989 ming so‘m miqdorida davlat budjeti tasdiqlangan[10]. Shu yilga nisbatan 1965 yilda 68 % ga budjet miqdori oshirilganligi arxiv hujjatlarida keltirilgan. Budjetning katta o‘zgarishi asosiy qismi aylanma soliq 70 % ga ko‘paygan, lekin foydadan ajratmalarida miqdor jihatidan kamaygan. Soliqlar tahlil qilinganda, kolxozlardan olinadigan daromad solig‘ida 1965-yildan oldingi yilga nisbatan 403 ming so‘m kam bo‘lib, jamoat tashkilotlari, korparotsiya va davlat organlaridan olinadigan daromad solig‘idan 144 so‘m ko‘p bo‘lgan. Aholidan daromad, qishloq xo‘jaligi, bo‘ydoq, yolg‘iz va kambolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliqlarning o‘tgan yilga nisbatan 73 % ko‘p budjet daromadida keltirilgan. Shu yillardagi mahalliy soliq va yig‘imlarda miqdori o‘tgan yilgiga nisbatan kam ortgan. Arxiv hujjatlarini tahlili natijasida 1964-yildagi oblast daromadining 87 % ini soliq, 1965 yildagi daromadning 75 % ini tashkil etgan.

Shu davrdagi mahalliy budjetni shakllantirishda Qashqadaryo oblasti Qamashi tumani Ijoiya qo‘mitasining raisi Raximkulov va Tuman moliya bo‘limi mudiri Amanovlarni oblast Ijroiya qo‘mitasi raisi Jalilovga va oblast moliya bo‘limi mudiri Bozorovga qilgan murojaatida Ko‘kbuloq, Qorabog‘ va Tukboy qishloq sovetlarida aholining ko‘p yashashi va ularning hududlar juda katta bo‘lganligi sababli aholidan yig‘ib olinadigan mablag‘larni o‘z vaqtida yig‘ish va boshqa qiyinchiliklar borligi arxiv hujjatlarida keltirilgan[11].

Oblast budjeti xarajatlarining katta qismini xalq xo‘jaligini va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish bo‘lib, xalq xo‘jaligini moliyalashtirishga – mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, suv transporti yo‘l xo‘jaligi va avtomobil transporti, savdo hamda aloqalarni o‘z ichiga olgan. Bulardan katta xarajat aholining kommunal xo‘jaligi, keyingi o‘rinda qishloq xo‘jaligi bo‘lgan. 1965-yildagi harajatning 18 %, undan oldingi yildagi xarajatni 14 % ini tashkil qilgan. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga – xarajatning 78 % ga yaqinini, shundan maorif, sog‘likni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta‘minotlar kiritilib, oblast xarajatining katta qismini maorif – 50 % ga to‘g‘ri kelgan[12].

1970-yildagi Surxondaryo oblasti Moliya bo‘limi davlat daromadlari boshlig‘i E.Shamsutdinov tomonidan tasdiqlangan 1969-yilgi budjet ijrosi va 1970-yilgi budjet loyihasiga ko‘rsatilgan, 1969-yilda 55800 ming so‘m belgilanib, ijrosi 54962 ming so‘m miqdorida bajarilgan. 1970-yilda 60153 ming so‘m kutilayotgan natija bo‘lgan. Oblast kesimida daromadlarning 16 ta turi keltirilib, ulardan soliq, boj va yig‘imlar 12 tani 75 % ga to‘g‘ri kelgan. Daromaddagi soliqlar ulushiga e‘tibor qoratilsa, asosiy manbai aylanmadan olinadigan soliq 67 % ini, aholidan daromad solig‘i 18 %, kolxozlardan daromad solig‘i 9 %, qishloq xo‘jalini solig‘i 3 %, bo‘ydoq, yolg‘iz va kambolali SSSR fuqarolaridan olinadigan soliq 1,4 % ini to‘g‘ri kelib, 80 % dan oshig‘ini tashkil etgan[13]. Aylanmadan olinadigan soliq daromadiga 13 ta mahsulot kiritilib, bular non mahsulotlari, vino, pivo tayyorlash sanoati, tamaka, shakar, qandolatchilik, margarin, pishiriq sanoatining boshqa turlari, to‘qimachilik sanoati, payabzal, to‘qimachilik, mahalliy, maishiy boshqarmalar va boshqa daromadlar kiritilgan.

Milliy arxiv hujjatlarida berilgan Surxondaryo oblasti moliya bo‘lmining budjet bo‘limi boshlig‘i D.Gromov tomonidan berilgan ma‘lumotda, oblast kesimida shahar va tuman moliya bo‘limlar budjet daromadlarini to‘liq bajarilgan. Daromadlarning o‘n beshta turi bo‘lsa, ulardan uchtasida tamoshalardan olinadigan soliq, o‘rmon daromadlari va qishloq xo‘jaligi solig‘ida to‘liq reja bajarilmagan[14] boshqa daromadlarning ortiqcha bajarilishi hisobiga mahalliy budjet rejasi bajarilgan.

Qashqadaryo oblasti Moliya bo‘limi mudiri U. Bazarov, budjet bo‘limi boshlig‘i A. Stepanovalar bergan ma‘lumotga ko‘ra, daromad 107 %, xarajat 99,2 % ga bajarilgan. Shu

yildagi shahar va tumanlarda daromadlar qismi reja bo'yicha bajarilib, xarajatlar qismida Shahrisabz shahar hamda Qamashi va Chiroqchi tumanlarida reja bo'yicha amalga oshirilgan. Boshqa tumanlarida to'liq belgilangan rejalar amalga oshirilmaganligi arxiv hujjatlarida keltiriladi. Oblast bo'yicha 73 ta qishloq va pasyolka sovetlarida daromad qismi bo'yicha 7 tasida bajarilmagan[15].

Lekin shu yil bo'yicha boshqa oblastlarga e'tibor qoratilsa, shulardan Surxondaryo oblastida daromadlarning mahalliy budjetda 14 ta turi berilib, shulardan soliq va yig'implarda rejani to'liq bajarmaganlik holatlari qayd etilgan. Xarajatlarning 5 ta turi keltirib o'tilganligi haqida Surxondaryo oblasti moliya bo'limi boshlig'i E. Muxammadiyev tasdiqlangan hujjatlarda keltirilgan[16].

1980-yildagi keltirilgan hisobotlarga ko'ra, respublika, ASSR, o'lka, oblast, okrug budjetlari, okrug budjetlari, tuman budjetlari, tumanga bo'ysinuvchi shahar budjetlari, ishchi pasyolka budjetlari va qishloq kengashlari kabilarni tashkil qilgan[17]. 1989-yildagi respublikaning davlat budjeti umumiy xarajatlarida mahalliy budjet xarajatlari 39,6 % ini tashkil qilgan[18]. Bu ko'rsatkich davlat budjeti uchun juda ham ahamiyatli o'ringa ega bo'lgan.

1990-yildagi oblast moliya boshqarmalariga tegishli arxiv hujjatlarini o'ziga xos jihatlaridan biri har bir oblastga tegishli yig'majildlari ichida "aylanma varaqa (обходной лист)" bo'lib, ya'ni bunda har bir soha to'g'risiga shu sohani boshqaruvchi rahbar imzosi qo'yilgan hujjat keltirilib sanalar jihatidan eng oxirgi sanada davlat budjeti bo'limi boshlig'i imzosi qo'yilgan.

Surxondaryo oblasti budjet bo'limi boshlig'i o'rinbosari X. Saparov, bosh hisobchi A.Bazarovlar tomonidan berilan "1990-yil uchun Surxondaryo oblasti mahalliy budjetining ijrosi bo'yicha "aylanma varaqa"da daromadlar 104,1 % ga bajarilib, hamma tuman va shaharlar rejani to'liq amalga oshirgan. Oblast bo'yicha 94 ta qishloq va posyolkalaridan Termiz tumanidagi Pattakesar qishloq sovetlari rejani bajarmagan. Shu yildagi xarajatlar 99,7 % ga bajarib, bulardagi Angor, Gagarin, Sariosiyo, Termiz, Sho'rchi tumanlari va Denov shaharlari xarajatni rejali bajarib, qolgan hududlar reja bajarilmagan[19].

1991-yildagi davlat budjetida mahalliy budjetning ulushi 27 % ga to'g'ri kelganligi, lekin shu yillarda davlat budjetida ham taqchillik kuzatilgan. Shuning natijasida davlat budjetida xarajatlar yuqoriligi oblastlar kesimida ham 7,48 % qilib taqchillik teng taqsimlanganligi qayd etiladi. Davlat daromad va xarajatlar ulushida 8-o'rinda Qashqadaryo, 10-o'rinda Surxondaryo oblasti bo'lgan[20].

Xulosa qilib aytadiganda, Ikkinchi jahon urushidan keyin sovet hokimiyatida mahalliy budjetdagi daromadlar qismini soliqlar tashkil qilgan bo'lsa, xarajatlar qismini maorif va

sogʻlikni saqlash tashkil qilgan. Soliqlar sohasida ham oʻzgarishlar boʻlgan, urush davrida joriy qilingan baʼzi soliqlar bekor qilingan. Davlat budjetidagi mahalliy budjetlar oʻz daromadidagi baʼzi bir soliqlar ularning oʻz hisobida qoldirilgan. Mahalliy budjet har doim davlat budjetining tayanchi boʻlgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qashqadaryo-oblasti-uz/> Murojaat qilingan sana 15-fevral 2026-yil.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/surxondaryo-oblasti-uz/> Murojaat qilingan sana 12-mart 2026-yil.
3. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 902-yigʻmajild, 4-86-varaqlar.
4. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 910-yigʻmajild, 55a-53a-varaqlar.
5. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 1195-yigʻmajild, 3-varaq.
6. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 1982-yigʻmajild, 44-varaq.
7. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 1982-yigʻmajild, 44-45-varaqlar.
8. Surxondaryo VDA R-3-fond, 1-roʻyxat, 893-yigʻmajild, 203-varaq.
9. Surxondaryo VDA R-3-fond, 1-roʻyxat, 893-yigʻmajild, 17-varaq.
10. Qashqadaryo VDA R-51-fond, 1-roʻyxat, 788-yigʻmajild, 3-6-varaqlar.
11. Qashqadaryo VDA R-133-fond, 1-roʻyxat, 63-yigʻmajild, 54-varaq.
12. Qashqadaryo VDA R-51-fond, 1-roʻyxat, 788-yigʻmajild, 6-varaq.
13. Surxondaryo VDA R-3-fond, 1-roʻyxat, 1349-yigʻmajild, 3-varaq.
14. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 3251-yigʻmajild, 53-56-varaqlar.
15. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 3248-yigʻmajild, 92-107-varaqlar.
16. Surxondaryo VDA R-45-fond, 1-roʻyxat, 190-yigʻmajild, 3-5-varaqlar.
17. OʻzMA, R-93-fond, 20-roʻyxat, 289-yigʻmajild, 97-varaq.
18. Ўзбекистон ССР Олий Советининг мажлислари тўққизинчи сессияси. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Олий Совети нашри, 1989. Б. 44.
19. OʻzMA, R-93-fond, 15-roʻyxat, 6502-yigʻmajild, 89-108-varaqlar.
20. Ўзбекистон ССРнинг 1991 йилги давлат бюджети хақида // Совет Ўзбекистони. № 38 1991. – Б. 1-3.